



SALOMATLIK – TUMAN BOYLIK

ЗДОРОВЬЕ НАРОДА — БОГАТСТВО СТРАНЫ

PEDIATR

№ 9 (928) 11-may, chorsanba 2022-yil	TOSHKENT PEDIATRIYA TIBBIYOT INSTITUTI MEHNAT JAMOASI NASHRI ОРГАН ТРУДОВОГО КОЛЛЕКТИВА ТАШКЕНТСКОГО ПЕДИАТРИЧЕСКОГО МЕДИЦИНСКОГО ИНСТИТУТА	Gazeta 1974-yil martdan chiqqa boshlagan
--------------------------------------------	---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------	------------------------------------------------

TARIX VA KELAJAK UCHRASHADIGAN KUN

B. T. DAMINOV,
ToshPTI rektori,
Xalq deputatlari Toshkent
shahar kengashi deputati

O'zbek millatining qiyofasini ifodalovchi fazilatlar bisyor. Ana shunday xalqimizning eng oliy fazilatlaridan biri ajdodlar ruhiga hurmatdir. O'zbek xalqi vatani, xalqining farovonligi, tinchligi yo'lida jonini fido etgan farzandlarini hech qachon unutmaydi.

1999-yili 9-may kuni Toshkent shahrida Xotira maydoni ochildi. Va shu kundan boshlab "9-may – Xotira va qadrlash kuni" – umumxalq bayrami keng nishonlanadigan bo'ldi. Xotira va qadrlash tushunchasi chuqur ma'noga ega. Ushbu bayram ona tuprog'imizda asrlar davomida qahramonona vatanimizni himoya qilgan, uning ozodligi, farovonligi va xalqining tinchligi uchun kurashgan vatandoshlar xotirasiga bag'ishlangan.

To'maris, Shiroq, Spitamen, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik, Najmiddin Kubro kabi milliy qahramonlar va xalq ozodligi uchun kurashgan Qodiriy, Behbudiy, Munavvar qori, Cho'lpon, Avloniy, Fitrat, Usmon Nosir kabi jadid bobolarimiz, jumladan, vatanimiz tinchligi yo'lida ko'ksini qalqon qilgan har bir farzandini eslash, ruhini shod etish bugungi musaffo osmon ostida, xotirjam umrguzaronlik qilayotgan vatandoshlarimizning ham farzi, ham qarzidir.

Biz azal-azaldan tinchliksevar, insonparvar xalqimiz. Aynan shu g'oya va mafkuralar targ'ibiga bag'ishlangan buyuk milliy ma'naviy meroslarimiz bor. Ularning barchasining tub zamirida tinchlikning qadriga yetish targ'ib etiladi, urush va nizolar batamom qoralanadi. Yigirma uch yildan buyon "9-may – Xotira va qadrlash kuni"ni umumxalq bayrami sifatida nishonlab kelayotganimiz zamirida ham aynan ana shu ezgu maqsad yotibdi.

Ikkinchi jahon urushida halok bo'lgan minglab yurtdoshlarimiz xotirasini yod etish, olovli janggohlardan omon qaytgan bobolarimizga, og'ir va qora kunlarni sabr-bardosh bilan yenggan, zil-zambil yillarning zalvorli daqiqalarini o'zligini yo'qotmagan holda yashab o'tgan yurtdoshlarimizga hurmat-ehtirom ko'rsatish milliy qadriyatga aylandi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Inson xotira bilan tirik, qadr bilan ulug'. Yaxshilar yodi va ularning umr yo'lida dasturulamal bo'lgan ezgu maqsadlar, amaliy ko'nikmalar bilan kelajakning rejaları aniq hamda samarali. O'tganlarni, ularning xayrli va ezgu ishlarini, jasoratini, fidoyiligini yodga olmoq, e'zozlamoq, o'sib kelayotgan yosh avlod tarbiyasi va ma'naviyati yuksalishida foydalanmoq xalqimizga xos ezgu fazilatlardan ekanini ta'kidladik. Bu hol yoshlarni yurtparvarlik, mehnatsevarlik, ajdodlarining eng yaxshi an'alaridan faxrlanish, ularga munosib vorislar bo'lish ruhida tarbiyalashda beqiyos ahamiyatga ega.

Inson – hayot, tabiat gultoji. Yurtimizda olib borilayotgan islohotlarning bosh g'oyasi – "Inson qadri uchun" shiorining tag zamirida ham, albatta, qadr-qimmat, mehr-oqibat kabi fazilatlar yotibdi. Keksalarni ardoqlash, ko'ngli yarimlarning koriga yarash, ko'makka muhtojlarning dardiga malham bo'lish qon-qonimizga singib ketgan. Ustozlarni e'zozlash, ota-onaning dousini olish, kichiklarni izzatlash, o'tganlarni xotirlash xalqimiz uchun saodat.

Xotira shunday ruhiy-ma'naviy qudratki, u insonning insonligini anglatuvchi, uni o'tmish va istiqbol bilan bog'lab turuvchi mo'jizaviy ko'prikdir. Xotirlash – xalq manfaati uchun kurashgan, el-yurt hurmatiga sazovor bo'lgan kishilarni eslashdir. U olamdan o'tgan ajdodlarni eslashgina emas, asrlar mobaynida Vatan taqdiri uchun hayotini tikkan, kurashda halok bo'lgan qahramonlar xotirasini hurmatlash hamdir.

Bu nishonlayotgan sanamiz tarix va kelajak uchrashgan kun. U shu yurtda yashayotgan har bir inson, har qaysi oila, har qaysi xonadon uchun bevosita daxldor bo'lgan, ularning hayotida mustahkam, o'zga narsalar bilan o'rnini to'ldirib bo'lmay izga ega sanadir. Kechagi kun saboqlarini, xalqimiz kelajagi yo'lida jon fido qilgan insonlarni xotirlash bugungi kuni-mizni qadrlashga o'rgatadi.

Inson xotirasi, uning muqaddas Vatandagi aziz o'rni bugungi kunda har doimgidanda e'zozlanmoqda.

YOSHLAR MAVZUSI SAHNADA

Teatr san'ati sintetik san'at bo'lgani uchun ham jamiyat hayotida – tomoshabinlarning ma'naviy va estetik tarbiyasida muhim o'rin tutadi. Teatr – hayot ko'zgusi. Talabalarning o'zlari bu jarayonda ishtirok etishlari esa bugungi shiddatli zamonda ham jamiyatning, ham ilm toliblarining yutuqlari.

Yoshlarning har tomonlama yetuk kadr bo'lib yetishishlari uchun yurtimizda ta'lim tizimida ham har qachon samarali islohotlar olib borilgan. Natijalar ham quvonarli, albatta. O'tkazilayotgan har bir tadbir, loyiha talabalarning bo'sh vaqtini samarali tashkil qilishi bilan birga, yangi iste'dodlarni kashf qiladi. Har yili yoki yil ora o'tkaziladigan "Talabalar universiadasida" dan tortib, "Yil talabasi" gacha musobaqa, ko'rik tanlovlar ilm talabidagi yoshlarni katta maqsadlar sari ilhomlantirishni ko'zda tutgan.

Joriy yilning 29-aprel kuni Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi hamda Vazirlik huzuridagi Ma'naviyat-ma'rifat markazi, Yoshlar ishlari agentligi tomonidan e'lon qilingan Oliy ta'lim muassasalari teatr studiyalari o'rtasida "Yilning eng yaxshi talabalar teatr studiyalari" ko'rik tanlovi mintaqaviy bosqichi bo'lib

o'tdi. Unda Toshkent pediatriya tibbiyot instituti teatr studiyasi "Pediater" jamoasi ham munosib ishtirok etdi.

Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti mezbonligida bo'lib o'tgan tanlovda O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti, Toshkent davlat yuridik universiteti, Toshkent davlat yuridik universiteti ixtisoslashtirilgan filiali, Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti hamda Toshkent pediatriya tibbiyot instituti teatr jamoalari qatnashdi.

Sahnaga birinchi bo'lib chiqqan ToshPTIning "Pediater" jamoasi Xayriddin Sultonovning "Yo Jamshid" hikoyasi asosida sahnalashtirilgan spektaklni namoyish etdi. Ushbu asar Tanlov nizomiga mos ravishda ijtimoiy hayotimizda sodir bo'layotgan hodisalar, dolzarb muammolari masalalar, ayniqsa, yoshlar hayotini aks ettiruvchi mavzuning sahnaviy talqini bo'ldi. Spektaklda institutimizning havaskor aktyor va aktrisalari o'z rollarini mahorat bilan ijro etishdi. Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, asardagi "amma" rolini gavdalandirgan 1-bosqich talabasi Sattorova Lay-

loning ijrosi barcha kuzatuvchilarda iliq taassurot qoldirdi.

Toshkent davlat yuridik universiteti Ozarbayjon adabiyotining romantik komediya musiqiy asari bo'lgan "Arshin Mal Alan" spektaklini namoyish etishdi. Sahnadagi barcha qo'shiqlar jonli tarzda mahorat bilan ijro etildi. Ushbu sahna ko'rinishi barcha kuzatuvchilarga birdek manzur bo'ldi.

Toshkent davlat yuridik universiteti ixtisoslashtirilgan filiali talabalari tomonidan buyuk ajdodlarimiz hayotiga bag'ishlangan sahna asarini namoyish etishdi. Sahnada bir vaqtning o'zida buyuk sarkarda Amir Temur, So'z mulkingning sultoni Alisher Navoiy, Bibixonim, Uvaysiy singari tarixda o'zining buyuk nomlarini munosib qoldirgan ajdodlarimiz siymosi gavdalandirildi.

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti talabalari tomonidan "Yonimizdagi farishtalar" sahna asari namoyish etildi. Asar hozirgi pandemiya davrida o'zining fidokorligi va jonkuyarligini ko'rsatgan matonatli shifokorlarimiz haqida edi. Havaskor talabalar tomonidan namoyish etilgan spektakl barchaga yoqdi. Spektakl so'nggida hakamlar hay'ati tomonidan xato va kamchiliklar aytib o'tildi.

Tanlov so'nggida nominatsiyalar bo'yicha g'oliblar aniqlandi. Toshkent pediatriya tibbiyot institutining "Pediater" jamoasi "Eng yaxshi badiiy rahbar" nominatsiyasida g'oliblikni qo'lga kiritdi.

Bu yutuq nafaqat "Pediater" teatr jamoasi yutug'i, qolaversa Toshkent pediatriya tibbiyot instituti jamoasi yutug'i hamdir. Institutimiz "Pediater" teatr jamoasining keyingi faoliyatiga ham muvaffaqiyatlar tilab qolamiz.

Muruvvat AKBAROVA



HAYOT O‘ZI USTOZ

Hayot har birimizning ustozimiz. Ya‘ni, hayotimiz davomida bizga uchragan, biz bilan yashagan tanishlar, begonalar, qarindoshlar ham xulq-atvorimiz, o‘zligimizning shakllanishida katta ahamiyat kasb etishi shubhasiz. Muhabbat opa shunday fe‘l-atvorli inson bo‘lishida ko‘proq xolalarining tarbiyasi ahamiyatli bo‘lgan. Hamma ishini ozoda, nuqsonsiz va maromiga yetkazib qiluvchi Zohida xolalari har bir vazifani eplardilar. Ularning tikkan ko‘ylaklari shunchalik mukammal chiqardi-ki, ko‘ylakning o‘ngisini ham teskarisini ham bemalol kiya bo‘lard. Og‘ildagi sigirini kun tartibiga rioya qilib – yem yeyishga, bir vaqtda hojatga chiqishiga o‘rgatilgan ediki, og‘ilxonda umuman yoqimsiz hid bo‘lmas ekan.

Chak-chakka deb qorilgan kichikroq xamir zuvalasi uchun esa atigi ikkita qoshiq bilan, qo‘lini hatto unga tekizmay birpasda xamir tayyorlarkan. Qo‘shnilar “Zohidaning uyida igna tushsa ko‘rinadi, shunchalik toza”, deyishar edi.

Uy tutishida, ro‘zg‘or yuritishda Muhabbat opaga xolalari ibrat bo‘lgan bo‘lsalar sahiylik, insoniylikda ajdodlari: katta bobo-buvilar, o‘z bobo va buvilari, ota-onalari haqiqiy ibrat namunasi edi.

Urush

Muhabbat opa yoshliklarini eslaganda ko‘z oldilariga katta bog‘ keladi. Qo‘shnilari Tyotyaya Raya ularning oq yong‘oqlarini juda yaxshi ko‘rar edilar. Ikkinchi jahon urushi paytida O‘zbekistonga urush hududlaridan evakuatsiya qilingan ko‘plab oilalar kelgan va ularni Muhabbat opaning bobolari o‘z bag‘riga olgan. Muhabbat opaning bobolari – Fayziboyvachchaning o‘g‘li Xojimurod ham urushda bedarak yo‘qolgan.

Evakuatsiya qilinganlar orasida Klava, uning turmush o‘rtog‘i Vova, o‘g‘li Yura va kelinlari ularning hovlilarida istiqomat qilishdi. Ayovsiz urushning qattiq qahri mehrlil otilanining muruvvatidan ustun kela olmadi. Oila a‘zolari sog‘-u salomat bo‘lib og‘ir yillardan omon chiqdilar.

Qiyin paytlarda o‘z nasibasini begonalardan ayamagan oila a‘zolari ibrati Muhabbat opa qalbida qoldi va fe‘l-atvori aynan shunday saxiylik va adolat, insonparvarlik nurlari bilan yo‘g‘rilib shakllanadi.

Onalari esa kiyim tikar edi. Muhabbat onasining o‘zganing haqqiga xiyonat qilmasligini, nihoyatda haloligini ko‘rib o‘sdil.

Kiyim tiktirishga kelgan har bir mijozining qiyim matosigacha qaytib berar edi. Kimdir ularni olmay qoldirganini ko‘rsa, quyidagi rivoyatni aytib berardi: Bir tikuvchi igna teshigidan ipi o‘tmay qolganda ip uchini olovga tutib, so‘ng o‘tkazar ekan. Shunday qilib bir umr halol ishladim deb o‘ylagan tikuvchini u dunyoda buyurtmachining haqini kuydirgansan deb, o‘sha ishini gunoh sifatida baholashgan ekan.

Shuningdek Muhabbat opaning katta bobolari va buvilari ham davrining pesh-

qadam insonlari bo‘lib, ularning uylariga Abdulla Qodiriy ham kelar, adib asarlarini mutolaa qilishar edi. Aslida Otabek va Kumushning prototipi bobosi Miraxmad Xoja va buvisi Soliha bo‘lishgan.

Maktab davri

O‘qishga, ma‘rifatga intilish ham Muhabbat opa oilasining qadriyatlaridan biri edi.

Muhabbat opa 1947-yilda ishchilar shaharchasidagi 20-maktabda tahsil oldilar. Bu urushdan keyingi yillar edi. Maktabda o‘qish qahramonimiz uchun qiziq edi. Uyda esa oyisiga tikishga qarashar, to‘g‘ri choklarni tikar, etak, yenglarni qo‘lda bostirar edi. Yana qizaloq yoshligidan yaxshi rasm chizar, shuning uchun onasi qizining qiziqishini hisobga olib, modelyer bo‘lishini va to‘qimachilik institutiga kirishini bashorat qilardi. Ammo bir vaziyat qizining taqdirini o‘zgartirib yubordi. Qanday vaziyat deysizmi? Muhabbat ko‘richak bo‘lib qoldi. Ularga qo‘shni bo‘lgan Toshkent tibbiyot institutining bosh shifokori Mashrab Nazarov qizaloqni kasalxonaga yotqizdi, mahalliy narkoz berib, operatsiya qilgan professor jarroh Tagirov operatsiyani mahorat bilan bajaradi. Yonida esa amaliyotni kuzatish uchun kelgan talabalar o‘sha payt endi ekranga chiqqan “Tarzan” kinosi haqida savollar berishdi. Operatsiya tugagach professor qizchaga qarab: “Sen juda ham kuchli qiz ekansan. Mana maktabni bitiryapsan. Kelajakda kim bo‘lmoqchisan?” – degan savolni berdi. O‘sha paytda Muhabbat o‘zini og‘riq va azoblardan qutqargan, shuningdek, hayotini saqlab qolgan insonning kasbi naqadar ulug‘vor ekanligini xayolidan o‘tkazar ekan “Sizdek insonlar hayotini saqlaydigan shifokor bo‘lmoqchiman!” – dedi.

Oyoqqa turgach esa o‘sha shifoxonadagi shifokorlarning ishlarini diqqat-e‘tibor bilan kuzata boshladi.

Oliyohda tahsil

O‘ylagan maqsadini amalga oshirish uchun Muhabbat dugonalari bilan Tibbiyot institutiga hujjatlarini topshiradi.

Ammo ular bu institutda hamma fakultetda ham shifokorlarni tayyorlaydi deb adashib Sanitariya fakultetini tanlashadi va ta‘lim jarayoni boshlanadi.

Undan oldin esa fizika fanidan qo‘shimcha darslarga qatnashadi. Shunga bo‘lsa kerak fizika fanidan kirish imtihonini olgan Said Rumiy o‘zi qo‘ygan bahoni ko‘rsatib: “Mana bu beshni qarang, haqiqiy besh. Barakalla, qizim”, – degan ekan.

Muhabbat opa o‘zining talabalik yillari bilan bugungi talabalarni solishtirar ekanlar o‘sha yillarni eslab, ularda o‘qish va ta‘lim olishga, uy vazifalarni sidqidildan bajarishga, mavzuni oxirigacha tushunishga bo‘lgan istak juda kuchligini ta‘kidlaydi. Talabalar har bir dars oldidan bir-biri bilan mavzuni muhokama qilishar, tushunmagan joylarini bir-biriga tushuntirishga harakat

qilishar va bundan hech kim erinmas, birovdan yordamini ayamas edi. Suhbatlari ham faqat o‘qish haqida bo‘lard. Ularning fakultetlari esa “Gvardiyachi fakultet” deb atalar, chunki barcha ishlarda ilg‘or edilar.

Paxta terimi

Hayotida paxta qanday o‘shishini bilmagan Muhabbatning oldiga yaqinda texnikumga kirgan xolasining qizi keladi va maqtana boshlaydi. “Mana yaqinda bizni paxtaga olib ketishadi. Men eng baland paxta daraxtiga chiqib olaman, hammadan zo‘r teraman”. Buni eshitgan Muhabbat ham bo‘sh kelmaydi. Axir hayoti davomida bog‘laridagi mevalarni terib, daraxtdan-daraxtga sakrab yurgan qizga kim ham yeta olardi. Paxta qanday o‘shishini bilmagan Muhabbat ham eng baland paxta daraxtiga chiqishini aytib xolasining qizini yengishga urinadi.

Talabalarni institutdan avtobus Boyovut tumaniga olib boradi. Paxta terimida viloyatliklarga yetadigani yo‘q edi. Muhabbat ham kuchi yetganicha terdi, barakka qaytishdi, ovqatlanib uxlashdi. Uyusida esa tush ko‘rdi. Oyisi, uydagilari uni ko‘rishga kelishibdi. U paxta egatlaridan sakrab-sakrab, ularning yoniga oshiqmoqda. Shu payt uning qo‘lidan kimdir tortayotganini sezdi. Ikki talaba uni uyg‘otib qayeragadir boshlab borishdi. Chiroq yongan xonada uyqusiragan ko‘zlarini ochgan Muhabbat hali ham shirin tushidagi voqeadan ajralgisi kelmas, avvaliga yig‘ilganlar unga nima deyishayotganini tushunmas edi. Keyin anglasa paxtani kam tergani uchun unga tanbeh berishayotgan ekan. Har doim maqtoq eshitib yurgan, yana yoqimli tush ta‘siridagi qizga bu gaplar og‘ir botib u yosh boladay baqirib yig‘lab yubordi. Atrofdagilar endi uni ovuta boshlashadi. Shtab boshlig‘i esa “Mayli, Fayziyeva bilan ertaga gaplashamiz, joyiga borsin”, – deydi. U esa xonaga kirib ham yig‘isini to‘xtatmaydi. Muhabbatning uyini sog‘inib yig‘layotganida uning yig‘isiga boshqalar ham qo‘shilishadi. Shunda xonaga o‘qituvchilar kirishadi. Uyni sog‘ingan talabalarga rivoyat aytib berishadi, yig‘i to‘xtamaganini ko‘rgach esa dutor olib kelib, quvnoq qo‘shiq aytib, barchaning kayfiyatini ko‘tarib, so‘ng chiqib ketishadi.

Ammo Muhabbat gap eshitishga o‘rganmaganligi uchun paxta terimida faollashib, ancha yaxshi terimchiga aylanadi.

Kasb tomon yo‘l

Muhabbatni bitiruvchi sifatida O‘zbekiston Sanitariya, gigiyena va kasb kasalliklari ilmiy-tekshirish institutiga



taqsimlashadi. U yerda Muhabbat profpatolog lavozimida faoliyat yuritib boshlaydi. Bu kasb egasi ish joyida zararli omillardan kasal bo'lganlarni tekshirar, ularga nafaqa belgilar edi. Shu orada ilmiy ish uchun materiallar ham yig'ar edi. Bu materiallarni Muhabbat Chirchiqdagi qiyin eriydigan va o'tga chidamli metallar kombinatda yig'ardi. Dissertatsiyalari "Qiyin eriydigan va o'tga chidamli metallar bilan ishlaydigan ishchilarning mehnat sharoiti va kasallanishi" deb nomlangan edi. Ularning rahbarlari O'zbekiston Respublikasi bosh profpatologi Solixodjayev Saidamin Saidxodjayevich edilar. 1972-yili O'rta Osiyo pediatriya tibbiyot instituti tashkil etilganda ustozlarini institutda kafedra mudiri lavozimiga tavsiya etishadi. Ustoz esa o'zining tirishqoq shogirdini ham institutda ishlashga chorlaydi. Bu vaqtga kelib Muhabbat dissertatsiya himoyasi arafasida edi. Kasb kasalligini kamaytirish haqida ancha tavsiya va ilmiy yangiliklarga boy dissertatsiyani yoqlash arafasida edi. Ammo Muhabbat institutda ma'ruza o'qishi haqida tasavvur qilsa, qo'rquv bosar edi. Buni ustoziga aytganda, ustoz "O'z ilmiy ishing haqida gapirsang ham talabalarni fanga qiziqitirib olasan", – derdilar qat'iy. Ammo Muhabbat shunda ham o'quv yurtiga o'tish haqida o'ylamas edi. Dissertatsiyasi himoyasiga ikkinchi rahbar bo'lib kelgan samarqandlik professor Izrail Gavrilovich Pirriyev Muhabbatni oliy o'quv yurtida ishlashga ko'ndiradi.

"Men talabalar ichidaman, menga qara, hech kim o'z yoshimni bermaydi. Yoshlar bilan ishlash zavqli. Maza qilasan. Doim yosh bo'lasan, eplashingga ishonaman", – deydi u.

Pedagogik faoliyat

1972-yilda ochilgan O'rta Osiyo pediatriya tibbiyot instituti binosiga hamma kafedralarni sig'dirishi qiyin edi. Saidamin Saidxodjayevich boshqargan kafedra bazasi ilmiy tekshirish institut xududida qoldi. Kafedraning aynan u yerda bo'lishi talabalarga kasb kasalliklari bilan kasallangan bemorlarni bevosita ko'rish uchun imkoniyat yaratadi va bu ular uchun juda qiziq edi. Konlarda burg'alash jarayonida niqob taqmay ishlash jarayonida nafas a'zolariga, o'pkaga yig'ilgan changlar hisobiga paydo bo'lgan kasalliklar bilan talabalar bevosita tanishishar edi. Amaliyot bilan bog'lab o'tish, rentgen xonalarida kasallarning suratlarini ko'rsatish talabalarining fanga qiziqishini, Muhabbatning esa kasbiga mehrini oshirar edi. Talabalar tartibli, katta zalda "tiq" etgan ovoz eshitilmas edi. Muhabbat opa bugungi kun talabalarining bir qismida avvalgilardak darsda to'liq diqqat-e'tibor yo'qligini ta'kidlaydi, mavzuning eng kerakli va eng qiziq qismi haqida gapirganingda talaba telefon titib o'tirishi ularni chalg'itishi haqida kuyunib gapirardi.

Muhabbat opa 1980–1996-yillar davomida institut xotin-qizlar qo'mitasini ham boshqardi. Bu yillar muntazam ravishda xotin-qizlar orasida qiynalgan, yordamga, salomatligini tiklashga muhtojlarga reja asosida, ba'zan rejasiz ham yordam berar, uning boshchiligida muntazam ko'riklar o'tkazilar, talabalar orasida suhbatlar, tushuntirish ishlari olib borilar edi. Sihatgohlarga, shifoxonalarga yo'llanmalar, moddiy yordam olishga ko'maklashar edi.

Bir samarqandlik qiz o'qishni tashlab ketganda o'qishini qaytib tiklashiga yordam berdi.

Ammo Muhabbat opa nafaqat ayollar, qizlarga yordam berardi. Endi ishga kelgan bir xodim uysiz qolgandi uyidan bir necha yilga joy berdi, doim moddiy va ma'naviy qo'llab turdi. Shu yigitning himoyasidan keyingi bazmda onasiga so'z berishganda "Yo'q, men gapirmayman, o'g'limning shu darajaga yetishida haqiqiy xizmat qilgan onasi Muhabbat opa", – dedi.

Muhabbat opaning yolg'iz o'g'li Habibillo Usmonov Moskvada faoliyat olib boradi. Kelinlari tibbiyotchi – narkolog Nilufar Usmanova Moskvada aspiranturani bitirib hozirgi vaqtda "Narkologiya Akademiyasi"da bosh narkolog hamda Akademiya qoshidagi klinikada ikkita bo'limga boshliq, meditsina universitetida ma'ruza o'qiydi. Toshkentdagi Narkologlarning anjumanlarida faol qatnashib keladi.

To'ng'ich nevaralari Madinaxon O'zbekiston davlat jahon tillari universitetida kafedra mudirasi, ikki nafar qizi bor.

Ikkinchi nevaralari Damiraxonning bir nafar qizi bor. Universitetni bitirgan, Moskvada ishlaydi.

Uchinchi nevaralari Yuridik Akademiyani bitirib, hozirgi vaqtda o'sha Akademiyada faoliyat olib bormoqda.

Muhabbat opa bugungi kunda ham sevimli ustoz, yosh o'qituvchilarning dono maslahatgo'yi. Ustozlari bashorat qilganday "yoshlar orasida yosharib bormoqdalar".

Biz ularga sog'lik-salomatlik, uzoq umr tilab qolamiz.

Kavsar TURDIYEVA

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi TOSHKENT PEDIATRIYA TIBBIYOT INSTITUTI

Professor-o'qituvchilar tarkibi bo'yicha quyidagi kafedralar lavozimlariga TANLOV e'lon qiladi:

KAFEDRA MUDIRI: Endokrinologiya va bolalar endokrinologiyasi; Xirurgik kasalliklari.

PROFESSORLAR: Sud tibbiyoti, tibbiyot huquqi.

DOTSENTLAR: Anesteziologiya va reanimatologiya, bolalar anesteziologiya va reanimatologiyasi; Fakultet pediatriya; Biofizika, tibbiy informatika; Xirurgik kasalliklari.


KATTA O'QITUVCHILAR: Xorijiy tillar; Fakultet bolalar xirurgiyasi.

O'QITUVCHILAR: Xorijiy tillar; Ijtimoiy fanlar.

ASSISTENTLAR: Oilaviy shifokor №2; Ftiziatriya va pulmonologiya; Ichki kasalliklar, nefrologiya va gemodializ; Biofizika, tibbiy informatika; Akusherlik va ginekologiya, bolalar ginekologiyasi; Yuqumli kasalliklar; Bolalar yuqumli kasalliklari; Asab kasalliklari va bolalar asab kasalliklari; Tibbiy radiologiya; Anatomiya, patologik anatomiya; Gistologiya; Xirurgik kasalliklari.

Tanlov muddati – e'lon chiqqan kundan 1 oy. Manzilgoh: Bog'ishamol ko'chasi 223, Tosh PTI.

Avtobuslar: 115, 19 ToshPTI bekati. 11.05.2022.

 <p>TOSHKENT PEDIATRIYA TIBBIYOT INSTITUTI MEHNAT JAMOASI NASHRI ОРГАН ТРУДОВОГО КОЛЛЕКТИВА ТАШКЕНТСКОГО ПЕДИАТРИЧЕСКОГО МЕДИЦИНСКОГО ИНСТИТУТА</p>	<p>Tahrir kengashi: D.A. Asadov, A.V. Alimov, X.F. Haydarov, M. Ahmedova, K.N. Haitov, S.S. Gulyamov, D.T. Ashurova, A. Rahmatullayev, S. Nurxodjayev A. Valiyev, A. Nosirov, Nashr uchun mas'ul: Sh. Abduhoshimova</p>	<p>Bosh muharrir: B.T. DAMINOV Tahrir hay'ati: (ishchi guruh) E.O. Tursunov, K.Sh. Turdiyeva (Bosh muharrir o'rinbosari), A.M. Mannonov, D.A. Ahmedova, H. Rasulov S.A. Begmonov, H. Abidov, Z. Karimova, A. Xudayberdiyev</p>	<p>Gazeta Toshkent shahar matbuot va axborot boshqarmasida 29.12.2006-yil 02-0010-son bilan ro'yxatga olingan. Manzil: 700140, Toshkent-140, Bog'ishamol ko'chasi, 223 "XALQ NASHRIYOTI" XKda chop etildi. Manzil: Toshkent sh. Qorasaray ko'chasi, 316 uy. Tel.: (71) 242-0510; (95) 170-04-02; (99) 040-04-02. buyurtma adadi 110 nusxa, qog'oz bichimi A3. Gazeta institut hisobidan nashr etiladi va bepul tarqatiladi.</p>
-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------	-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------	----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------	-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------